

## **BAG'RIKENGLIK- TINCHLIK POYDEVORI**

Namangan viloyati tarixi va  
madaniyati davlat muzeyi hodimi

**Qosimjonova Sadoqat**

Ma'lumki O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir- biriga o'xshash bo'lmagan bir nechta halqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani, turli halqlarning diniy va ma'naviy hayotiga, shuningdek, Movounnaxrdagi urf-odatlar ham o'zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu esa o'ziga hos millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni shakllanishidagi asosiy omillardan biri bo'lib hizmat qilgan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobainida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlari va turmush tarzlari tutashgan, tinch totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik, hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo halqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaxo an'alarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'alarini avaylab qabul qilganlar. Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobainida jahon madaniyatlari dunyo miqiyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi halqlar o'troq halqlar bilan, erogen qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yaxudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'ngi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "ma'rifatli" hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushurgan bir paytda,

O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Bag'rikenglik – tinchlik poydevori bu

Bag'rikenglik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Bu tushuncha odamlarning bir-birini hurmat qilishi, turli madaniyat, din, qarash va urf-odatlariga nisbatan sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishini anglatadi.

Bag'rikenglikning tinchlikka ta'siri:

Nizolarning oldini oladi – Turli qarashlarga hurmat bilan yondashish mojarolar va adovatni kamaytiradi.

Jamiyatni mustahkamlaydi – Insonlar o'rtasidagi ishonch va birdamlikni oshiradi.

Taraqqiyotga hissa qo'shadi – Xilma-xillik va hamkorlik orqali ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochadi.

Ommaviy zo'ravonlikning oldini oladi – Adovat va kamsitishning oldi olinib, tinchlik mustahkamlanadi.

Bag'rikenglikni rivojlantirish uchun ta'lim, madaniy muloqot va o'zaro hurmat muhim rol o'ynaydi. Tinch jamiyat qurishning eng samarali yo'li bir-birimizni tushunish va qabul qilishdan boshlanadi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar o'zaro yaqinlashmoqda. Bu hol ular orasidagi ijtimoiy, madaniyva diniy sohalardagi doimiy muloqatlarni taqozo etmoqda. Shu maqsadda kelib chiqib 1945- yilda BMT ustavi “ sabr-toqatli bolish, jahonda yaxshi qo'shnilar sifatida birgalikda yashash, hamda xalqaro tinchlik va havfisizlikni qo'llab – quvatlash uchun sa-harakatlarimizni birlashtirish” ni o'z maqsadlardan beri deb e'lon qildi. 1991-yil 25-Noyabrda BMT Bosh Assambliyasining 361-55 realyutsuyasi din yoki e'tiqodaga asoslangan sabr-toqatsizlik va kamsitishning barcha shakillarini tugatish to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qildi.

Bosh Assambleya a'zo davlatlarni din yoki e'tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, din yoki e'tiqod erkinligi masalarida bir birini tushunish, sabr-toqatli va o'zaro hurmat qilishga ko'maklashishiga, hamda din yoki e'tiqotdan BMT ustaviga va BMTning boshqa tegishli hujjatlarda xilof bo'lgan maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda turli dinlarga mansub fuqorolarning o'z diniy arkonlari va ammallarini emin-erkin ado etishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ta'kidlanganidek, din, shu jumladan, muqaddas islom dinining odamlarni ezgulik va halollik, poklikka undash, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga da'vat etishdagi o'rin va ahamiyati beqiyosdir. Biroq bugungi murakkab va tahlikali, tezkor globallashtiruv davrida dunyoning turli mintalarida ro'y berayotgan mojarolarda ba'za din yoki milliy masala niqob qilib olinayotgani sir emas. Bu barchani yanada hushyorlik va ogohlikka, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, uning qadriga yetishga, jamiyatdagi beqaror muhitni asrab-avaylashga, yoshlar tarbiyasi uchun mas'uliyatni his etishga da'vat etadi. Bu kabi mudhish va vayronkor kuchga qarshi kurashda dunyo hamjamiyati birdek harakat qilish lozim. Shu ma'noda, yurtimizdagi millatlararo va diniy konfessiyalararo totuvlikni, o'zaro hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan siasat jahon jamiyatiga ibrat bo'la olishi nufuzli xalqaro tashlilotlar, xorijlik olimlar, yetuk mutahassislar tomonidan e'tirof etilmoqda .

Yurtimizda millatlararo va xalqaro totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslar paydo bo'layotgani tom ma'nodagi do'stlik qo'rg'onning yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Yurtimizda ta'lim yeti tilda olib borilayotgani, 138ta milliy madaniy markazlarning faoliyat ko'rsatayotgani bag'rikenglik siasatiga nechog'li amal qilayotganligiga misol bo'la oladi. Qolaversa, 130dan ortiq millat va elat vakillari o'rtasida diniy bag'rikenglik siasatiga nechog'li amal qilinayotganiga misol bo'la oladi. Qolaversa, 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'rtasida diniy bag'rikenglik va millatlararo bag'rikenglik do'stlik tobora mustahkamlashib bormoqda. Yurtimizda millatlararo va fuqorolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Istiqlol bizga ana shu ezgu an'analarni izchil davom ettirish va avloddan avlodga mukammal bo'lib o'tishini ta'minlash imkonini beradi. Zero , O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekn bizning katta boylgimiz, eng yuksak qadryatimiz- hukm surayotgan tichlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001, 89-b.
2. Qurbanova Y. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014, 104-b .
3. B.Qurbonov, G.Qurbanova Texnologiya Va Dizayn Toshkent -2020, 246-b
4. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.  
– T., 2006.
5. Malikova S.S. Tasviriy san'at tarixi. – T., 2008.
6. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. – T.: «O'qituvchi»